



Creating a probation institute in Uzbekistan and foreign experience

Kuvonch KODIROV¹

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

ARTICLE INFO

Article history:

Received May 2023
Received in revised form
15 June 2023
Accepted 25 June 2023
Available online
15 July 2023

Keywords:

Ministry of the Interior,
Public Security
Administration,
Probation Service,
criminal,
crime,
convict,
term.

ABSTRACT

In order to bring to a new level of protection of the rights, freedoms and legitimate interests of persons sentenced to punishments not related to deprivation of liberty, over the past period, the Probation Service and its territorial divisions were created as a part of the Public Security Department of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan and its territorial divisions.

This article describes the basics, concepts, goals and objectives of the Probation Service. It also analyzes foreign experience with the allocation of historical data.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss5/S-pp115-119>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbekistonda probatsiya institutining tashkil etilishi va xorijiy tajriba

Kalit so'zlar:

Ichki ishlar vazirligi,
Jamoat xavfsizligi
departamenti,
Probatsiya xizmati,
huquqbuzar,
jinoiyat,
mahkum,
sinov.

ANNOTATSIYA

O'zbekiston rivojlanishining ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga hukm qilingan shaxslarni axloqan tuzatish, ularning huquqlari va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti va uning hududiy bo'linmalari tarkiblarida tegishli Probatsiya xizmati va uning hududiy bo'linmalari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Mazkur maqolada probatsiya xizmatining tashkil etilish asoslari, tushunchalari, maqsad va vazifalari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, tarixiy ma'lumotlarni yoritgan holda xorijiy

¹ Doctor of Philosophy in History, Associate Professor, Researcher, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.

tajribalar tahlil etilgan.

Создание института проба́ции в Узбекистане и зарубежный опыт

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Министерство внутренних дел,
Управление общественной безопасности,
Служба проба́ции, преступник, преступление, осужденный, срок.

В целях вывода на новый уровень защиты прав, свобод и законных интересов лиц, осужденных к наказаниям, не связанных с лишением свободы, за истекший период в рамках Стратегии развития приоритетного направления развития Узбекистана были создана Служба проба́ции и ее территориальные подразделения в составе Департамента общественной безопасности МВД Республики Узбекистан и его территориальных подразделений.

В данной статье описаны основы, понятия, цели и задачи службы проба́ции. Также анализируется зарубежный опыт с выделением исторических данных.

KIRISH

Inson uchun eng qimmatli boylik uning sha'ni va qadr-qimmatidir. Uni kamsitishga yo'l qo'yilmaydi. Bu qoida qonunlarimizda qat'iy belgilab qo'yilgan. Bu qoida jinoyati uchun jazoni o'tayotgan mahkumlarga ham taalluqli. Jazo turidan qat'i nazar, ular o'zining asosiy huquq va majburiyatlaridan, jamiyat a'zolidan mahrum qilinmaydi.

Mamlakatimizda jinoyat sodir etgan shaxslarni axloqan tuzatish, jamiyatdan ajratmagan holda jamoatchilik bilan uzviy hamkorlikda qayta tarbiyalash borasida keng ko'lamlı islohotlar o'tkazilyapti. Shulardan biri probatsiya xizmatining yo'lga qo'yilganidir. Mazkur xizmat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrda qabul qilingan "Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4006-qarori [1] bilan 2019-yil 1-yanvardan joriy etilgan. Qarorga muvofiq Ichki ishlar vazirligi Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasining Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar ijro etilishini nazorat qilish boshqarmasi negizida dastlab vazirlikning Jazoni ijro etish bosh boshqarmasi huzurida keyinchalik vazirlik Jamoat xavfsizligi departamenti tarkibida Probatsiya xizmati faoliyati yo'lga qo'yildi.

Bugungi kunda – probatsiya atamasi juda ko'plab holatlarda keng qo'llanib kelinmoqda. Jumladan, jinoiy jazolarni ijro etish tizimini tadqiqot qilishga oid ishlarda [2], xalqaro huquqiy hujjatlarda, shuningdek, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan tasdiqlangan Mahkumlar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari (1955-yil) [3], Yevropa penitensiar qoidalari (1987) [4] va boshqalar.

Xo'sh, probatsiya o'zi nima? Bu xalqaro atama lotinchadan olinib "probatio" – ya'ni "sinov" degan ma'noni anglatadi. Mohiyatan shartli hukm qilingan mahkumlarni qayta tarbiyalash, ularning huquqlarini ro'yobga chiqarishning samaradorligini oshirishni nazarda tutadi [5].

Probatsiya tarixi - Probatsiya xizmatining dastlabki shakllari o'rta asrlarda Angliyada vujudga kelgan. Bunga o'sha davrda qo'llanadigan jazolarning juda qattiq va shafqatsizligi sabab bo'lgan, deyiladi manbalarda [5].

Hozirgi ko'rinishdagi probatsiya xizmati 1841-yilda AQSh politsiyasi ofitseri Jon Avgustus tomonidan tashkil qilgan. Bunga kutilmagan bir voqea sabab

bo'lgan. Kunlarning birida sud ichkilikbozlikka yo'liqqan huquqbuzarni hibsonaga jo'natadi va uch haftadan keyin hukm o'qilishini ma'lum qiladi. Hukm o'qiladigan kuni huquqbuzar politsiya ofitseri Jon Avgustus hamrohligida xushmuomalalik bilan kirib keladi. Hamma huquqbuzarning tashqi qiyofasi va fe'l-atvori tubdan o'zgarganidan hayratlanadi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, Jon Avgustus huquqbuzarni nazoratga olib, axloqan qayta tarbiyalagan ekan. Shu orqali sud va kishilar ongida shaxsni jazolash emas, balki qayta tarbiyalash orqali jinoyatlarning oldini olish mumkinligi to'g'risida tasavvur paydo bo'lgan. Shundan keyin Probatsiya xizmati 1878-yilda tashkil etilib, Federal probatsiya qonunchiligini qabul qilinishga urinishlar 1908-yildan beri amalga oshirilgan, ammo tegishli qonun faqat 1925-yilda qabul qilingan [6].

Angliyada esa probatsiya instituti 1887yilda "Birinchi mahkumning sud jarayoni to'g'risida" gi qonunning qabul qilinishi munosabati bilan paydo bo'lgan. Bugungi kunda probatsiya xizmati dunyoning bir qator rivojlangan davlatlari, xususan AQSh, Daniya, Shvetsiya, Finlandiya, Norvegiya, Niderlandiya, Shveysariya kabi davlatlarning jinoyat-ijroiya qonunchiligiga kirib kelgan hamda ushbu xizmat faoliyati turli davlatlarda turlicha yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, jinoyat sodir etgan shaxslarni axloqan tuzatish, ularni jamiyatdan ajratmagan holda jamoatchilik bilan uzviy hamkorlikda qayta tarbiyalash borasida ko'plab rivojlangan mamlakatlarda shunday xizmat faoliyat yuritadi. Ko'rishimiz mumkinki rivojlangan davlatlar amaliyotidan hamda bir qator davlatlarda o'tkazilgan tadqiqotlar va o'rganishlar asosida jinoiy jazo choralari sifatida insonga qo'llaniladigan ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar ijro etilishi takomillashishiga olib keldi

Mahkumlarni axloqan tuzatishda ularning ichki dunyosini o'rganish, ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatish muhim hisoblanadi. Masalan, Norvegiya, Daniya, Niderlandiya, Shveysariya va boshqa bir qator rivojlangan davlatlarning probatsiya bo'linmalarida psixologlar ishlaydi. Buning uchun alohida xizmat xonalari va zallari tashkil etilgan. Ular nazoratdagi har bir shaxs bilan individual suhbat o'tkazib boradi. Ularga psixologik yordam ko'rsatadi. Ruhiiy holati, muammolarini aniqlaydi. Sinov davrida ana shu muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar beradi. Psixologik uslublarni qo'llagan holda nazoratdagi shaxslarning ijtimoiy-psixologik portreti tuziladi.

Sobiq sovet respublikalarida (MDH) ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga hukm qilingan shaxslar ustidan nazorat funksiyalari probatsiya faoliyati tomonidan amalga oshirilishi Moldova Respublikasida 2008-yildan, Ukrainada 2015-yilda hamda Armaniston, Qozog'iston Respublikalarida 2016-yil boshida, shuningdek, Qirg'iziston Respublikasida 2017-yildan joriy etilgan hamda probatsiya xizmatining faoliyati huquqiy ta'minlangan [7].

Dunyoning aksariyat davlatlarida probatsiya xizmati Jazoni ijro etish departamenti, Sud departamenti, Adliya vazirligi tarkibiga kiritilgan. Misol uchun, qo'shni Qirg'iziston Respublikasida probatsiya xizmati Adliya vazirligi tarkibiga kiradi.

Daniya probatsiya xizmati 1973-yildan to'raligicha Daniya Adliya vazirligi ixtiyoriga o'tgan. Shuningdek, Amerika Qo'shma Shtatlarida Probatsiya xizmatining umumiy boshqaruvi AQSh Oliy sudining ma'muriy idorasi tomonidan amalga oshiriladi va sohani bevosita boshqarish mahalliy sudlar tomonidan amalga oshiriladi [8].

Buyuk Britaniyada Adliya vazirligi oldida hisobdor bo'lgan huquqbuzarlarni davolash bo'yicha milliy xizmat tomonidan amalga oshiriladi, GFRda Probatsiya instituti sud tizimida probatsiya bo'yicha sudyaning yordamchisi shaklida tarkibiy tuzilishga ega.

Shvetsiyada mustaqil qamoq va probatsiya xizmati tomonidan amalga oshirilsa, Estoniyada probatsiya Adliya vazirligining Jinoyat nazorati bo'yicha davlat xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Probatsiya xizmatining tashkil etilishi ko'pgina davlatlarda o'zining ijobiy samarasini ko'rsatdi.

Misol uchun qo'shni Qozog'istonni olaylik. 2020-yilda shartli ravishda jazoga tortilganlar (6858) ning 37 foiziga nisbatan probatsiya qo'llanilgan. Natijada umumiy mahkumlarning 202 nafari qayta jinoyatga qo'l urgan bo'lsa, 163 probatsiyaga tushganlarning bor yo'g'i 15 nafari, ya'ni 7,4 foizi takroran jinoyat sodir etgan [9]. Bundan xulosa qilsak, jinoyat sodir etilishining oldini olishda hamda mahkumlarni axloqan tarbiyalashda probatsiyaning o'rni katta.

O'zbekistonning amaldagi qonunchilik amaliyotida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarning ijro etilishini nazorat qiluvchi yangi xizmat probatsiya xizmati yuqorida ta'kidlanganidek 2019-yilning 1-yanvar kundan faoliyati yo'lga qo'yildi. Xizmatining asosiy 4 ta vazifasi mavjud bo'lib ular quyidagilar:

- ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etish bo'yicha faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek, jamoat tuzilmalari bilan o'zaro hamkorlikda samarali tashkil etish;

- shartli hukm qilingan va jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshirish;

- nazorat ostidagilar, shuningdek, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy moslashuvi va ishga joylashishiga, shu jumladan, ularning kasbiy tayyorgarligi bo'yicha tadbirlarni tashkil etish orqali har tomonlama amaliy ko'maklashish;

- nazorat ostidagilarning qayta jinoyat sodir etish xavfini aniqlash va bunga yo'l qo'ymaslik bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish, ularning shaxsini ijtimoiy-psixologik portretni tuzgan holda o'rganish etib belgilandi.

O'tgan qisqa davr ichida Probatsiya faoliyatini yanada samarali tashkil etish, probatsiya nazoratida turgan shaxslarni ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta'minlash, jamiyatga moslashtirish borasidagi ishlarni yaxshilash bo'yicha bir qator Prezident hamda hukumat farmon va qarorlari qabul qilindi.

Misol uchun, 2021-yilning 29-noyabr kuni "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 27-sonli Farmonining [10] qabul qilinishi, Probatsiya xizmati faoliyatini yanada takomillashtirishda muhim o'rin tutdi. Xususan, mazkur Farmonga asosan kelgusida quyidagi tartiblar belgilanadi va takomillashtiriladi:

- probatsiya nazoratidagi shaxslarga nisbatan yuritiladigan hujjatlarni to'liq elektron shaklga o'tkazish, ularga nisbatan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari qo'llash tartibi va asoslarini belgilash;

- majburiy jamoat ishlari jazosini qo'llashga doir normalarni, ushbu jazoni ijro etish mexanizmlarini takomillashtirish;

- axloq tuzatish ishlari jazosini band bo'lmagan shaxslarga tayinlash amaliyotiga doir muammoni bartaraf etish;

- jazoni o'tashdan bo'yin tovlagan shaxslarning jazosini og'irroq jazoga almashtirish tartiblarni takomillashtirish;

- probatsiya nazoratidagi shaxslarning o'rnatilgan cheklovlarga rioya etishini va ularning zimmasiga yuklangan majburiyatlarni bajarishini ta'minlash, "Elektron braslet" dan foydalanish;

– nazoratdagi shaxslarga tarbiyaviy va huquqiy taʼsir choralari qoʻllash hamda ularni ijtimoiy moslashtirish boʻyicha “Harakatlar protokoli”ni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

– probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan yakka tartibdagi suhbatlarni maxsus “Suhbat xonasi”da oʻtkazish tartibini joriy qilish;

– probatsiya nazoratidagi shaxslarning jamoat xavfsizligi xizmatiga kelib roʻyxatdan oʻtishini taʼminlashda barmoq izini tanib olish tizimidan foydalanish amaliyotini joriy etish;

– probatsiya nazoratidagi shaxslarning yashash, ish va oʻqish joyida ekanligini tekshirish maqsadida GPS texnologiyali qurilmalaridan foydalanish yoʻlga qoʻyiladi.

Xulosa qilib aytganda, probatsiya inspektorlarining faoliyati hududiy profilaktika inspektorlari bilan kunlik uzluksiz hamkorlikda tashkil etilishi belgilab qoʻyildi. Probatsiya inspektorlari zimmasiga profilaktik hisob va maʼmuriy nazoratdagilarning shaxsini oʻrganish va ularni ijtimoiy moslashtirish ishlarida profilaktika inspektorlariga amaliy-uslubiy koʻmaklashish boʻyicha qoʻshimcha vazifalar yuklandi.

Kelgusida, probatsiya nazoratidagi shaxslarga ijtimoiy-psixologik yordam koʻrsatish, kasb-hunarga oʻrgatish va ishga joylashtirish boʻyicha koʻmaklashish tadbirlarini amalga oshirishda, mutasaddi tashkilotlarning vazifalari aniq belgilangan holda, yakka tartibdagi ijtimoiy moslashtirish dasturi asosida amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 08.11.2018-y. 07/18/4006/2166-son.
2. Samuel H. Pillsbury. Understanding Penal Reform: The Dynamic of Change. Journal of Criminal Law and Criminology. Volume 80 Issue 3 Fall Article 3 – P.729
3. Mahkumlar huquqlari: xalqaro va milliy standartlar. / F.Bakayeva va boshq. – Toshkent: Tafakkur, 2011. – B. 98.
4. Европейские пенитенциарные правила Комитета министров ООН. – М., 2016. – 136 с.
5. Тимошенко С. Пробация // Преступление и наказание. -1992.-№10.-С. 58.
6. Борисов А. О роли английского юриста Д. Говарда в улучшении организации системы тюремного заключения, XVIII в. // Преступление и наказание. 1993. - № 6. - С. 44.
7. Кантон Р. Прохождение пробации за рубежом /Р. Кантон //Европейский журнал пробации. Университет Бухареста. Т.1. - Бухарест, 2009. - С. 67.
8. Гета М.Р. Пробация и её пути развития в России: /М.Р. Гета // Актуальные проблемы государства и права. – Новокузнецк: НФИКемГУ.- 2005. - №1. - С.132.
9. Хуторская Н.Б. Институт пробации в США: уголовно-правовые и криминологические аспекты. Автореф. Дисс. на соискание уч. степ. К.ю.н. – М.: 1998. – С. 23.
10. Мансуралиев Р.А. Юридическая природа института пробации. // Преступление и наказание. 2021. - № 6. - С. 44.
11. Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 01.12.2021-y., 06/21/27/1116-son.